


## Korxonalar va tashkilotlar (2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida Viloyatda 3181 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1201 taga ko'pdir.


Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2349 ta (15,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 17974 tani tashkil etgan.

### Korxona va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rinda tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning  
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,1 % savdoda, 14,4 % sanoatda, 10,4 % qurilishda, 10,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6,3 % tashish va saqlash, 2,7 % sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 1,2 % axborot va aloqa, va 27,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

### Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tuman va shaharlar kesimida soni, o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) birlikda




### Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 dekabr xolatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
Buxoro viloyati	18972	17974	100	100
Buxoro tumani	1427	1279	7,5	7,1
Vobkent	845	815	4,5	4,5
Jondor	1269	1214	6,7	6,8
Kogon tumani	980	910	5,2	5,1
Olot	651	543	3,4	3,0
Peshku	1153	1110	6,1	6,2
Pomitan	1446	1402	7,6	7,8
Shofirkon	1168	1065	6,2	5,9
Qorako'l	969	923	5,1	5,1
Qorovulbozor	350	342	1,8	1,9
G'ijduvon	2027	1874	10,7	10,5
Buxoro sh	6032	5862	31,8	32,6
Kogon sh.	655	635	3,4	3,5

2018 yil yanvar-noyabr holatiga 3181 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 60,6% ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Buxoro shahrida (997ta), Romitan (342 ta), G'ijduvon (280 ta) va Buxoro (212 ta) tumanlarida

tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (71 ta), Olot ( 98 ta) hamda Vobkent (117 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar  
va tashkilotlarning soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda ( 545 ta), sanoatda (502 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (501 ta) va qurilishda (418 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (38ta) sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (87 ta), hamda tashish va saqlashda (124 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
**(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	2016 yil 1 dekabr xolatiga			2017 yil 1 dekabr xolatiga			2018 yil 1 dekabr xolatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %
Sanoat	284	101,4	15,9	449	158,0	22,7	502	111,8	15,8
Savdo	418	137,5	23,4	305	73,0	15,4	545	178,7	17,1
Qurilish	223	119,9	12,5	221	99,1	11,2	418	189,1	13,1
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	271	130,9	15,2	397	146,5	20,1	501	126,2	15,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	165	146,0	9,2	202	122,4	10,2	291	144,1	9,2
Tashish va saqlash	157	140,2	8,8	92	58,6	4,6	124	134,8	3,9
Axborot va aloqa	50	106,4	2,8	30	57,7	1,5	38	126,7	1,2
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	42	123,5	2,4	57	135,7	2,9	87	152,6	2,7
Boshqa turlari	174	130,8	9,8	227	130,5	11,4	675	3,0 m.k	21,2


## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 dekabr holatiga 14798 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3042 ta, oilaviy korxonalar – 947 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10439 ta va boshqalar 370 tani tashkil etadi.


## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'ssatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 143 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 55 taga yoki 62,5 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'ssatayotgan korxonalardan 98 tasi qo'shma korxonalar, 45 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

#### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar 80 ta (55,9 %), Kogon tumanida 10 ta (7,0 %) va Buxoro 9 ta (6,3%) tuman hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qorovulbozor va Shofirkon tumanlarida 2 tadan (1,4%) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 80 ta (55,9 %), savdoda 21 ta (14,7 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 14 ta (9,8 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 ta (0,7 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (1,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 6 ta (4,2 %), qurilishda 7 ta (4,9 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 12 ta (8,4 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa

tashish va saqlashda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)**



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 53 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37 taga ko'paygan.

Bunda, Turkiya Respublikasi – 10 ta, Rossiya Federatsiyasi – 9 ta, Koreya Respublikasi – 7 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-3 ta, Eron Islom Respublikasi – 3 ta va boshqa davlatlar rezidentlari kapitali ishtirokida 21 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Авғонистон, Hindiston, Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-noyabr holatiga) birlikda**




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 23 ta, savdoda 8 ta, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 6 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 5 ta qurilishda 4 ta, va boshqa faoliyat turlarida 7 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-noyabr			2018 yil yanvar-noyabr		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiyl soniga nisbatan %	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiyl soniga nisbatan %
<b>Sanoat</b>	10	2,5 m.k	62,5	23	2,3 m.k	43,4
<b>Savdo</b>				8		15,1
<b>Qurilish</b>	1		6,2	4	4,0 m.k	7,6
<b>Qishloq va o'rmon xo'jaligi</b>	1		6,2	5	5,0 m.k	9,4
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>				6		11,3
<b>Tashish va saqlash</b>				1		1,9
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>				1		1,9
<b>Boshqa turlari</b>	4	4,0 m.k	25,0	5	125,0	9,4


## Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 14668 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 15,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 5017 tasi (34,2 %) Buxoro shahriga, 1538 tasi (10,5 %) G'ijduvon, 1173 tasi (8,0 %) Romitan hamda 1062 tasi (7,2 %) Buxoro tumanlarilari hissalariga to'gri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14668 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3757 tasi (25,6 %) – savdoda, 2556 tasi (17,4 %) - sanoatda, 1855 tasi (12,6 %) - qurilishda, 1799 tasi (12,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi, 1176 tasi (8,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1126 tasi (7,7 %) - tashish va saqlashda, 418 tasi (2,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 194 tasi (1,3 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1785 tasi (12,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yil yanvar-noyabr holatiga 2823 tadan ortiq kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 50,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahrida (915 ta), Romitan (310 ta), G'ijduvon (246 ta) va Buxoro tumanlarida (188 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (66 ta), Olot (83 ta) hamda Vobkent (98ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (543 ta), sanoatda (501 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (498 ta) va qurilishda (418 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (87 ta), axborot va aloqada (38 ta) tashkil etilgan.

### **Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy**


#### **faoliyat turlari bo'yicha soni**



## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 dekabr holatiga 1002 tani tashkil etib, ulardan 947 tasi yoki 94,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha 42,5 % ga oshganligini ta`kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 32,4 % yoki 307 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 28,5 % yoki 270 tasi sanoat,

14,3 % yoki 135 tasi savdo, 13,2 % yoki 125 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 2,4 % yoki 23 tasi sog`likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 1,0 % yoki 9 tasi qurilish, 0,8% yoki 8 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 7 tasi axborot va aloqa, hamda 6,7 % yoki 63 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

